

AYOLLARGA NISBATAN SODIR ETILAYOTGAN ODAM SAVDOSI JINOYATLARI: TAHLIL, MUAMMO VA YECHIM



Bazarov Farrux Abdugafurovich

*O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig'i
o'rinbosari, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori*

Annotatsiya. Mazkur maqolada ayollarga nisbatan sodir etilayotgan odam savdosi jinoyatlari haqida fikr yuritilib, mazkur jinoyatlar to'g'risida tahliliy ma'lumotlar keltirilgan. Jinoyatlarning kelib chiqish sabablari, muammolar, oldini olish bo'yicha yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar ilmiy jihatdan ochib berilgan. Ayollarni odam savdosi qurboniga aylanayotgani sabablariga alohida e'tibor qaratilgan va uning yechimlari borasidagi takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: odam savdosi, ayollar, jinoyat, kriminologiya, inson huquqlar, erkinlik, ozodlik, oila, cho'rilik, qullik, tazyiq va zo'ravonlik, mahalla, ijtimoiy profilaktika.

ПРЕСТУПЛЕНИЯ, СВЯЗАННЫЕ С ТОРГОВЛЕЙ ЖЕНЩИНАМИ: АНАЛИЗ, ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Аннотация. В статье дается представление о преступлениях торговли людьми, совершаемых в отношении женщин. Также представляется аналитическая информация об этих преступлениях. Выявлены причины этих преступлений, проблемы и недостатки в профилактике. Особое внимание уделено причинам, по которым женщины становятся жертвами торговли людьми, предлагаются пути решения.

Ключевые слова: торговля людьми, женщины, преступность, криминология, права человека, свобода, семья, рабство, угнетение и насилие, соседство, социальная профилактика.

CRIMES OF TRAFFICKING AGAINST WOMEN: ANALYSIS, PROBLEMS AND SOLUTIONS

Abstract. This article provides an understanding of human trafficking crimes committed against women. It also provides analytical information about these crimes. The causes of the crimes, problems, and shortcomings in prevention are scientifically revealed. Special attention is paid to the reasons why women become victims of human trafficking and its solutions are summarized.

Keywords: human trafficking, women, crime, criminology, human rights, freedom, liberty, family, slavery, oppression and violence, neighborhood, social prevention.

Tirik mavjudotlar orasida faqatgina insonlarga aql-idrok berilgan, shu bois insonlar barcha zamonlarda ham huquqlari ta'minlanishini istagan, ozod va erkin yashashga harakat qilgan. Davrlar o'tib qullikka mahkum qilinganlar ozod va erkin shaxsga aylangan.

Ming afsuski, bugungi kunda "zamonaviy qullik" ko'rinishidagi odam savdosi dunyo bo'y-lab o'ta xavfli illat sifatida keng tus olmoqda.

Dunyoda hech bir mamlakat, hech bir millat yo'qki, bu darddan aziyat chekmagan bo'lsa... XX asrning 80–90 yillariga kelib urchiy bosh-lagan ushbu illat bugun jahonni tashvishga solayotgan og'riqli nuqtaga aylanib ulgurdi. Uning keng tarqalishi inson shaxsi, sha'ni, qadr-qimmat, huquq va erkinliklariga jiddiy tahdid tug'dirmoqda. Ushbu illat qurbonlarining aksa-riyati ayollar ekanligi achinarli holat.

Ayol – nozik xilqat bo‘lib, mehribon ona, oqila rafiq, oqibatli opa yoki singil hamda suyuqlik qiz kabi vazifalarini ado etib kelayotgan mo‘tabar zot. Shuning uchun ham odam Atodan to hozirga qadar ayolga alohida ehtirom va e‘tibor ko‘rsatiladi. Har bir ayol baxtli bo‘lishni, o‘z oilasidan mehr ko‘rishni va e‘tiborga loyiq bo‘lishini istab, begona inson bilan hayot rishtasini bog‘laydi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda ayollar bot-bot odam savdosi qurboni bo‘layotganliklari haqidagi yoqimsiz xabarlar barchamizda birdek xavotir uyg‘otishi tabiiy hol.

Darhaqiqat, bugungi globallashtirilgan dunyoda tinchlik va osoyishtalikka xavf tug‘diruvchi jinoiy qilmishlarning yangidan yangi tur va shakllari paydo bo‘lmoqda. Xususan, migratsiya jarayonlarining jadallashtirish fonida odam savdosi bilan shug‘ullanuvchi uyushgan jinoiy guruhlar keng quloch otib, “jonli tovar”dan milliardlab moddiy foyda ko‘rmoqda. Odam savdosi shaxsning ozodligi, sha‘ni va qadr-qimmatiga qarshi qaratilgan eng og‘ir jinoyat bo‘lib, insonni tahqirllovchi, qolaversa, jabrlangan shaxs fuqarosi bo‘lgan davlatning jahon hamjamiyatidagi nufuziga putur yetkazuvchi jinoyatlardan biri hisoblanadi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, “bir yilda dunyo bo‘yicha taxminan 4,5 millionga yaqin inson odam savdosidan jabrlanadi. Eng achinarlisi, ularning 72 foizini yoshlar, ayollar va bolalar tashkil etadi” [10].

Tarixda odam savdosi bilan bog‘liq transmilliy jinoyatlarga qarshi kurash bo‘yicha dastlab 1899-yil London shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyada “Ayollardan shahvoniy maqsadlarda foydalanish uchun ularni yollashga qarshi kurash to‘g‘risida”gi rezolyutsiya, 1904-yil 18-mayda Fransiyaning Versal shahrida “Oq tanli cho‘rilar savdosiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi protokol, 1921-yil 30-sentyabrda “Ayollar va bolalar savdosiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi va 1933-yil 11-oktyabrda esa Millatlar Ligasi tomonidan “Balog‘atga yetgan ayollar savdosiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi xalqaro konvensiyalar qabul qilingan.

BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 4-moddasida

ham “Hech kim qullikda yoki erksiz holatda saqlanishi mumkin emas, qullik va qul savdosining barcha ko‘rinishlari taqiqlanadi” [7; 12-b.] deb belgilab qo‘yilgan.

Ushbu deklaratsiya hamda odam savdosiga qarshi kurashishga qaratilgan bir qator xalqaro huquqiy hujjatlar milliy qonunchiligimizda amalga kiritilganligini hamda ratifikatsiya qilinganligini va davlatimiz ushbu jinoyat turiga qarshi jiddiy kurash olib borayotganini alohida ta‘kidlash lozim. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori bilan “Odam savdosiga va uchinchi shaxslar tomonidan tanafurushlikdan foydalanilishiga qarshi kurash to‘g‘risidagi konvensiyaga va yakunlovchi bayonnoma”ga qo‘shilgan, shuningdek, 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan “Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt”ga qo‘shilgan. Mazkur xalqaro paktning 8-moddasida “Hech kim qullikda saqlanmasligi kerak, qullik va qul savdosining barcha ko‘rinishlari taqiqlanadi. Hech kim erksiz holatda saqlanmasligi kerak. Hech kim majburiy yoki shart bo‘lgan mehnatga majbur qilinmasligi lozim...” deb belgilab qo‘yilgan [4].

1979-yil 18-dekabrda Nyu-Yorkda qabul qilingan va O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilgan Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyaning 6-moddasi bilan ishtirokchi davlatlarga ayollarni sotishning va fohishalikda ishlatishning barcha turlariga chek qo‘yish uchun barcha tegishli choralarni, shu jumladan qonunchilik choralari ko‘rish majburiyatini yuklagan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanishi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi, 42-moddasida har kim munosib mehnat qilishi, kasb va faoliyat turini erkin tanlashi, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlashi, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdori-

dan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olishi, shuningdek, ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalaniish huquqiga ega ekanligi, 44-moddasida esa sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanishi qayd etilgan [1; 27-28-b.]

Shuningdek, Konstitutsiyamizning 25-moddasiga muvofiq, yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqi va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyat hisoblanadi, 26-moddasi 2-bandida esa, hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emasligi [1; 17-18-b.] belgilab qo'yilgan.

Mazkur milliy va xalqaro huquqiy hujjatlar talablaridan kelib chiqib, amaldagi odam savdosiga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlarida ko'rsatilgan mexanizmlar belgilab berilmaganligi mazkur yo'nalishda samarali faoliyat olib borilishiga to'sqinlik qilishi, qonunchiligimizning xalqaro standartlarga mos emasligi sababli O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-avgustdagi "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 17-aprelda qabul qilingan "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-154-son qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, yangi tahriri tasdiqlandi.

Yangi tahrirdagi qonunda, eskisidan farqli ravishda, odam savdosining jabrdiydalarini identifikatsiya qilish, ularni qayta yo'naltirish hamda odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish va ularni himoya qilish mexanizmlari ochib berildi. Odam savdosiga qarshi kurashish sohasining asosiy maqsadi, vazifalari va prinsiplari belgilandi. Odam savdosi profilaktikasini amalga oshirish, odam savdosidan jabrlanganlar to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligi va ushbu ma'lumotlarning yagona axborot bazasini yaratish tartibi huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

Mazkur qonun ijrosini ta'minlash maqsa-

dida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining yangi tahrirda qabul qilingan "Odam savdosi" deb nomlangan 135-moddasida ushbu turdagi jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilaydigan ijtimoiy xavfli qilmishlar ko'rsatilgan.

Masalan, Jinoyat kodeksining 135-moddasiga muvofiq odamni olish-sotish yoxud undan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish harakatlari ijtimoiy xavfli qilmish sifatida javobgarlikni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, odam savdosini sodir etish harakatlarining jinoiy belgilariga ko'ra aybdor shaxslarga javobgarlik belgilanadi. Ushbu jinoiy harakatlarning ijtimoiy xavfli belgilaridan biri, bu odamni ekspluatatsiya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib ketish hisoblanadi.

Mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash yo'nalishida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida turli xavf-xatarlarga, shu jumladan odam savdosiga qarshi kurashish yo'nalishida ijobiy natijalarga erishilmoqda.

Jumladan, odam savdosiga qarshi kurashish yo'nalishda oxirgi yillarda 40 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilinib, natijada odam savdosi jinoyatlari kamayishiga erishildi va odam savdosining oldini olish choralari kuchaytirildi.

Biroq, odam savdosining turlari ko'p bo'lib, ularning sodir etilishi oqibatida fuqarolarimizning jabrlanishi hamon kuzatilmoqda. O'rganishlar natijalariga ko'ra, odam savdosi turlari orasida eng ko'p tarqalgani ayollardan shahvoniy maqsadlarda foydalanish, bola (chaqaloq) savdosi, majburiy nikoh, aldov yo'li bilan jangovar xizmatlarda foydalanish, majburiy mehnat, kishi a'zolarini kesib olib boshqa kishiga ko'chirish (transplantat) va boshqalar hisoblanadi.

Odam savdosining ayollardan shahvoniy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq turiga barham berish masalasining dolzarbligi tobora ortib bormoqda. Dunyoning barcha qit'alarida mavjud bo'lgan bunday jinoyatlar ko'p hollarda jabrlanuvchi ayollarni muayyan davlat hududidan boshqa davlatlarga noqonuniy tarzda o'tkazish bilan bog'liq holda sodir etiladi.

Ayollardan shahvoniy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq sodir etilayotgan odam savdosi jinoyatlarini aniqlash, oldini olish va fosh etishda bir qator transmilliy muammolar mavjud. Xususan, ushbu jinoyatning jabrlanuvchilari, asosan, ular yashayotgan davlatning xorijiy davlatlarda faoliyat olib borayotgan uyushgan jinoiy guruhlar bilan muayyan haq evaziga til birlashtirgan shaxslar tomonidan turli aldov yo'li bilan jinoyat qurboniga aylanayotgani ko'payib borayotganiga alohida e'tibor qaratish lozim. Shuningdek, aksariyat ijtimoiy tarmoqlar va Internet resurslarning serverlari xorijiy davlatlarda joylashganligi va ularning zararli oqibatlarini nazorat qilish choralari yo'qligi sababli ayollar osongina odam savdosi qurboni bo'lib, o'zga yurtda sarson-sargardon bo'lmoqda. Bu jinoyatning targ'iboti ko'proq kibermakonda sodir etilayotgani hamda ish taklifi bilan aldanyotgan ayollar jabrlanayotgani kuzatilmoqda.

Odam savdosi bo'yicha jinoyat ishlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, odam savdosi bilan shug'ullanuvchi jinoiy guruhlar (tashkilotlar) ichidagi rollarni taqsimlash muhim o'rin tutadi. Masalan, odam savdosining yirik jinoiy guruhlarida (tashkilotlarida) ko'pincha bitta vazifa yoki operatsiya (jinoiy harakat) ketma-ketligiga ixtisoslashgan nisbatan kichik-kichik guruhlar bo'linishi mavjud (yollash, boshpana berish, hujjatlarni qalbakilashtirish, jabrlanuvchilarni ishga va ish joyiga olib borish, qurbonlarni ekspluatatsiya qilish yoki boshqa joyga o'tkazish). Bu borada soha mutaxassisi Z.P.Xaydarzoda o'zining ilmiy izlanishida jinoiy guruhlar tomonidan odam savdosini amalga oshirish mexanizmini batafsil tahlil qilgan [8; 29-b.].

Tadqiqot natijalari va tahlillardan kelib chiqib, odam savdosini oldini olish va fosh etish bo'yicha yuqorida ko'rsatilgan xalqaro normalar, respublikadagi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda olimlarning fikr-mulohazalari, shuningdek, Avstriya, Belarus, Birlashgan Arab Amirli, Germaniya, Qirg'iziston, Qozog'iston, Latviya, Saudiya Arabistoni, Turkmaniston bilan tuzilgan bitim va shartnomalardagi odam savdosiga qarshi kurashishning mazmun-mohiyati, ulardagi o'ziga xos yondashuvlar atroflicha tahlil

qilinib, ushbu jinoyatlarning oldini olishda maqsadli xalqaro hamkorlikni amalga oshirishga zarurat mavjudligi borasida xulosaga kelish mumkin.

Shu o'rinda respublikamizda sodir etilayotgan odam savdosi jinoyatlari tahliliga to'xtalamiz. 2024-yilning 8 oyi yakuni bo'yicha jami aniqlangan odam savdosi jinoyatlarining 66,7% shahvoniy maqsadlarni ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, chaqaloq savdosi bilan bog'liq sodir etilgan odam savdosi jinoyatlari 31,7% va majburiy mehnat bilan bog'liq holda sodir etilgan odam savdosi 1,6 %ni tashkil etgan[9.].

Eng achinarli tomoni shundaki, ushbu odam savdosi jinoyatlarini sodir etgan ayblanuvchilarning 83,8% ayollar, jinoyat qurbonlarining 97,5%ni ham ayollar tashkil etmoqda.

Yuqoridagi tahlillar yurtimizda odam savdosi jinoyatlarini sodir etayotgan va undan jabrlanayotganlarning asosiy qismini ayollar tashkil etayotganligini ko'rsatmoqda.

Masalaning yana bir e'tiborli jihati shundaki, 2024-yilda sodir etilgan odam savdosi jinoyatlarining 22,8% Turkiyada, 11,4% Birlashgan Arab Amirliklarida, 8,1% Rossiya Federatsiyasida, 5,7% Hindistonda, 4,0% Taylandda, 1,6% Qozog'istonda, 0,8% Malayziyada va qolgan 45,0% boshqa davlatlar bilan bog'liq holda sodir etilgan [9.].

Bu borada eng muammoli jihat shundaki, odam savdosi jinoyati aniqlanib, fosh bo'lsa ham, faqatgina respublikamizda, asosan, ayollarni yollagan va jabrlanuvchilarni ekspluatatsiya qiluvchi davlatga jo'natgan jinoiy guruhning ayrim a'zolarigina jinoiy javobgarlikka tortilishi ta'minlanmoqda, xolos. Aksariyat davlatlarda faqatgina jabrlanuvchilarni jinoiy guruhlariga yetkazib berish bilan shug'ullanayotgan shaxslarigina javobgarlikka tortilib, boshqa davlatlarda odam savdosi bilan shug'ullanayotgan uyushgan jinoiy guruhlariga yetib borilmayotganligi, ular jinoiy faoliyatlarini uzoq yillar davom ettirayotganliklari tashvishli holdir. Bunday holat davlatlarning o'zaro hamkorligini kuchaytirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Chunki, jinoyatni sodir etgan shaxslar mamlakatimizda qo'lga olinib javobgar qilingani bilan boshqa bir

shug'ullanuvchi topilaveradi. Jinoyatning ildizigacha yetib borib barham berilmas ekan, jabrlanuvchi ayollarni soni oshib boraveradi.

Mazkur jinoyatlarning asil sabablari jamiyatdagi ishsizlik, axloqsizlik, oiladagi iqtisodiy tanglik hamda nizolar va boshqa omillardir. Shuningdek, oson va kam mehnat bilan ko'p pul topish ishtiyoqi mavjudligi ham asosiy omil hisoblanadi. Shuning uchun bu borada ayollar tez o'ljaga aylanmoqda. Zero, joylarda ijtimoiy profilaktikani yetarli darajada olib borilmayotganligi ham mazkur jinoyatning oshib borishiga turtki bo'lmoqda.

Shu maqsadda ijtimoiy profilaktika obyekti bo'lgan ayollarning ijtimoiy muammolarini hal qilishda "Mahalla yettiligi" vakillari, ayniqsa, xotin-qizlar faoli va hokim yordamchilarining rolini oshirish bugungi kunda muhim masalaga aylandi.

Ushbu muammoga yetarlicha e'tibor berilmayotganligi ayollarning mo'may pul topish maqsadida respublikamizdan turli bahonalar bilan, lekin qonunni buzmagani holda chiqib ketib, odam savdosi bilan shug'ullanayotgan muayyan davlatdagi jinoiy guruh a'zolariga o'z xohishlari bilan shahvoniy xizmatlar ko'rsatish uchun yollanish holatlariga sabab bo'lmoqda. O'z xohishi bilan shahvoniy xizmatlar ko'rsatish uchun yollangan ayollar asta-sekin uyushgan jinoiy guruhning faol a'zosiga aylanib, o'zi yashagan davlatdagi ayollarni turli yo'llar bilan aldab yoki o'z xohishlari bilan yollanganlarni odam savdosi qurboniga aylantirib, ekspluatatsiya qilishga yordam bermoqda.

Shuningdek, uyushgan jinoiy guruhlar odam savdosini jahon Internet tarmog'idan foydalangan holda ayollarni yollashda hamda yollangan ayollarni muayyan belgilangan shartlar va narxlarda shahvoniy xizmatlar ko'rsatish uchun xaridor topish maqsadida turli noqonuniy saytlar, telegramm va boshqa messendjerlardan foydalanish holatlari kuzatilmoqda. Ya'ni, uyushgan jinoiy guruh a'zolari jinoiy ta'qibga uchramaslik maqsadida jabrlanuvchilarni yollash, yetkazib berish va ekspluatatsiya qilish bilan bog'liq jinoiy qilmishlarini asosan Internet tarmoqlaridan foydalangan holda amalga

oshirmoqdalar. Bu esa, o'z navbatida, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga odam savdosi jinoyatini aniqlash, guvohlar va ashyoviy dalillarni topish va isbotlashda qiyinchiliklar tug'diradi. Sababi, bunda odam savdosi bilan shug'ullanayotgan shaxslarga Internetdan foydalanish jinoiy qilmishlarini amalga oshirishda o'zlarining shaxsini, jinoiy qilmishlarini va, eng asosiysi, jinoyat izlari, guvohlar qoldirmaslik uchun qulay makon hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan muammolarni hal qilishning yechimi sifatida quyidagilar taklif etiladi:

odam savdosiga qarshi kurashishda aynan odam savdosi bilan shug'ullanayotgan jinoiy guruhlarini aniqlash va aniqlangan uyushgan jinoiy guruhlar faoliyatiga chek qo'yish, bu borada odam savdosidan jabr ko'rgan fuqarolar mansub bo'lgan davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan hamkorlikda surishtiruv, tergov va tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqish va huquqiy asoslarini mustahkamlash choralari ko'rish;

odam savdosiga qarshi faol kurashayotgan davlatlar bilan xalqaro hamkorlikni kuchaytirish konsepsiyasini ishlab chiqish;

milliy qonunchilikdagi odam savdosini aniqlash, oldini olish va fosh etishda boshqa davlatlar, ayniqsa, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Rossiya Federatsiyasi, Hindistonda, Tayland, Qozog'iston, Malayziya va respublikamiz fuqarolari odam savdosi qurboni bo'layotgan boshqa davlatlar bilan ikki tomonlama tuzilgan yuridik shartnoma, bitim, protokol va boshqa hujjatlarni odam savdosiga qarshi kurashda kompleks tezkor-qidiruv va tergov harakatlarini maqsadli amalga oshirishni ta'minlashga xizmat qiladigan optimallashtirgan holda qayta qabul qilish yoki tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

mazkur xalqaro hujjatlar, bitim va shartnomalar talablari asosida hamkorlikni kuchaytirish, nafaqat respublikamiz ichkarisida, balki xalqaro va davlatlararo, ayniqsa Tailand, Malayziya, Hindiston, Turkiya va Dubayda odam savdosi bilan shug'ullanayotgan uyushgan jinoiy guruhlar tarkibida faoliyat olib borayotgan fuqarolarimiz orasidan shahvoniy maqsadlarda

foydalanish uchun ayollarni yollayotgan, yetkazib berayotgan va ekspluatatsiya qilayotgan shaxslarni aniqlash hamda ularning “jonli tovar”larni tashish va o‘tkazishiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

respublikamizda va xorijiy davlatlarda yashayotgan fuqarolarimizni, ayniqsa, xotin-qizlarni odam savdosi qurboni bo‘lib qolish xavfi, odam savdosi jinoyati uchun jazoning muqarrarliligi haqida o‘rta, o‘rta-maxsus va oliy ta‘lim muassasalaridan boshlab, barcha korxona, tashkilotlarda ogohlantirish, profilaktik suhbatlar o‘tkazilishini qat‘iy tartibini belgilash;

ijtimoiy muammolari tufayli odam savdosi jinoyatlarini sodir etishi yoki jabrlanishi ehtimoli yuqori bo‘lgan ayollar bilan ijtimoiy profilaktika obyekti sifatida tadbirlar o‘tkazish uchun profilaktika inspektorlari tomonidan xotin-qizlar faollari, hokim yordamchisi va mahallaning boshqa “Yettilik vakillari”ga xulosalar berilishini ta‘minlash;

odam savdosi qurbonlarini qo‘llab-quvvatlash va ularga yordam berishni kafolatlaydigan respublikamiz hududida yoki xorijiy davlatlarda

yashayotgan fuqarolarimizni elektron murojaatlarini qabul qilish platformasini ishga tushirish zarur.

Xulosa sifatida shuni ta‘kidlash joizki, respublikamizda ayollarga nisbatan sodir etiladigan odam savdosi jinoyatlarini o‘z vaqtida aniqlash, oldini olish va bunday jinoyatlarni sodir etgan jinoiy guruh a‘zolarini fosh etish hamda ularning kelgusida sodir etishi mumkin bo‘lgan yana shunday qabih jinoyatlariga to‘sqinlik qilish nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi, balki o‘z oilasi, yaqinlari va el-yurtini avaylab-asrash muqaddas burchi deb biladigan har bir vatanparvar fuqaroning burchidir.

Darhaqiqat, odam savdosi – asr muammosi. Bunda ayollarning, yosh bolalarning qurbon bo‘lishi davlatning ham, jamiyat va oilalarning ham jiddiy tashvishi. Bu borada har bir ayolga oilada e‘tibor berish, moddiy ta‘minlanishiga ko‘maklashish, yashashi uchun yetarli shart-sharoitni yaratish vazifamiz ekanini unutmaylik.

Foydalanilgan manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: Rasmiy nashr. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-633-son qonuni. <https://lex.uz>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003-yil 12-dekabrda “Odam savdosiga va uchinchi shaxslar tomonidan tanafurushtlikdan foydalanilishiga qarshi kurash to‘g‘risidagi konvensiyaga va yakunlovchi bayonnomaga qo‘shilish haqida” 576-II-son qarori // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004-y., 1-2-son. <https://lex.uz>.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi “1966-yil 16-dekabrda Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktga qo‘shilish haqida” 127-I-son qarori // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-y., 9-son. <https://lex.uz>.
5. Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shallariga barham berish to‘g‘risidagi 1979-yil 18-dekabr Nyu-Yorkda qabul qilingan konvensiya.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shallariga barham berish to‘g‘risida 1979-yil 18-dekabr Nyu-Yorkda qabul qilingan Konvensiyaga qo‘shilish haqida”gi qarori (06.05.1995-y. № 87-I).
7. *Is‘hoqova.L., Hamroyeva K.* Odam savdosiga qarshi kurash sohasidagi milliy va xalqaro huquq normalari. – T.: «Yurist-media markazi» nashriyoti, 2010.
8. *Хайдарзода З. П.* Правовые и организационные основы деятельности органов внутренних дел Республики Таджикистан по противодействию торговле людьми: Автореф. дис. канд. юрид. наук. – М., 2019. – 29 с.
9. O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2024-yilning 8 oy yakuni bo‘yicha hisobot materiallari tahlili.
10. ООН: 72 процента жертв торговли людьми – женщины и девочки. <https://uz.sputniknews.ru/society-/20190730/12122757/OON-72-protsenta-zhertv-torgovli-lyudmi-zhenschiny-i-devochki.html>. 30.07.2019